



**JINOYAT PROTSESSIDA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQINI
TA'MINLASHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

**Sardor
Odilov**

Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

odilovsardor955@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisimizda jinoyat protsessida shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlashning nazariy va huquqiy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda inson huquqlarining ustuvorligi, huquqiy davlat tamoyillari, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik normalari asosida shaxsiy daxlsizlikning mazmun-mohiyati yoritiladi. Jinoyat-protsessual majburlash choralari qo'llanilganda ushbu huquqni kafolatlash mexanizmlari o'rganilib, amaliyotdagi muammolar va ularning yechimlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Shaxsiy daxlsizlik, jinoyat protsessi, huquqiy asoslar, nazariy asoslar, inson huquqlari, majburlash choralari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, konstitutsiyaviy kafolatlar.

**THEORETICAL AND LEGAL BASIS OF ENSURING THE
RIGHT TO PERSONAL INVIOATION IN CRIMINAL
PROCEEDINGS**

Sardor Odilov

Independent Researcher at the Academy of Justice

odilovsardor955@gmail.com



Annotation: This article is devoted to the analysis of the theoretical and legal foundations of ensuring the right to personal inviolability in criminal proceedings. It covers the essence of personal inviolability based on the primacy of human rights, the principles of a legal state, international standards and national legislative norms. The mechanisms for guaranteeing this right when criminal procedural coercive measures are used are studied, and practical problems and their solutions are discussed.

Keywords: Personal inviolability, criminal proceedings, legal foundations, theoretical foundations, human rights, coercive measures, Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, constitutional guarantees.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА НЕПРИСТОЙНОСТЬ ЛИЧНОСТИ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ

Сардор Одилов

Независимый научный сотрудник Академии юстиции

odilovsardor955@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена анализу теоретических и правовых основ обеспечения права на неприкосновенность личности в уголовном процессе. В ней рассматривается сущность неприкосновенности личности на основе примата прав человека, принципов правового государства, международных стандартов и национальных законодательных норм. Изучаются механизмы гарантирования этого права при применении уголовно-процессуальных принудительных мер, обсуждаются практические проблемы и их решения.



Ключевые слова: Неприкосновенность личности, уголовный процесс, правовые основы, теоретические основы, права человека, принудительные меры, Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан, конституционные гарантии.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash demokratik huquqiy davlat qurishning asosiy ustunlaridan biridir. Shaxsiy daxlsizlik huquqi har bir insonning o'z tanasi, shaxsi va turmush tarziga nisbatan davlat aralashuvisiz erkinlikka ega bo'lishini anglatadi. Bu huquq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan bo'lib, ko'plab davlatlarning konstitutsiyalarida asosiy huquq sifatida kafolatlangan.

Jinoyat protsessida shaxsiy daxlsizlik huquqi ayniqsa nozik masaladir, chunki davlat jinoyatga qarshi kurashish maqsadida ma'lum sharoitlarda shaxsning daxlsizligiga cheklovlar kiritishga haqli bo'ladi. Biroq, bu cheklovlar qonuniy, asosli va mutanosib bo'lishi, shuningdek, inson huquqlarining eng fundamental tamoyillarini buzmasligi shart. Shaxsiy daxlsizlik huquqining jinoyat protsessidagi samarali ta'minoti davlatning adolat va huquq ustuvorligiga sodiqligini namoyon etadi. Ushbu maqola jinoyat protsessida shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlashning nazariy yondashuvlari va amaldagi huquqiy mexanizmlarni chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan. Tadqiqotning asosiy vazifasi mazkur huquqni kafolatlashning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish va milliy qonunchilikdagi amaliy jihatlarini baholashdan iborat.

Inson huquqlari murakkab va ko'p qirrali hodisa hisoblanib, ularning kelib chiqishi, ijtimoiy ildizlari tarixiy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ming yilliklarni bosib o'tgan va doimo siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy ma'lumotlarning diqqat markazida bo'lgan azaliy muammolaridan biridir.



An'anaga ko'ra, insonning shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi, uy-joy daxlsizligi, yozishmalar siri kabi tabiiy huquq va erkinliklari davlat tomonidan berilmaydi, balki inson tug'ilishi bilan paydo bo'ladigan huquqlardir. Davlat esa bunday huquq va erkinliklarni faqat qonun bilan tan olishi va mustahkamlashi mumkin. Shaxsiy hayot daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari masalasi hozirgi davr huquqiy maydondagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu huquqni konstitutsiyaviy kafolatlash orqali qonunchilikdagi turli ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar bartaraf etiladi va ularga asosli izoh beriladi. Shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirlarga bo'lgan huquqning konstitutsiyaviy kafolatlari masalasini yoritish jarayonda ushbu huquqning rivojlanishi sabablarini ko'rib chiqish, ushbu munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan amaldagi huquqiy tartibga solish hujjatlarida ham muayyan kamchiliklarni ko'rish imkoniyati vujudga keladi.

Konstitutsiyaviy kafolat tushunchasini ko'pgina olimlar huquqiy kafolatlar bilan aynan bir ma'noda ishlatishadi. T.T. Lyashenko o'z qarashlarida inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari turli formulalarda ifodalangan va umumlashtirilgan shaklda huquqiy davlat tomonidan qonun ustuvorligini ta'minlash majburiyatini oladigan huquqiy vositalar va mexanizmlar tizimi ekanligini aytib o'tgan. A. Saidov ta'kidlashicha, huquqiy kafolat inson huquqi, erkinliklari va majburiyatlarining huquq normasida qaytd etilishi, davlat va xalqaro hamjamiyat institutlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan ularning ta'minlanishi, saqlanishi va himoyasini tushunish mumkin. Huquqiy kafolatlar qonunda belgilangan vositalar, umumiy shartlarning ifodasi hisoblanib, bevosita inson huquqlarini jamiyatda huquqiy jihatdan to'g'ri amalga oshirishni va ularning muhofaza qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Davlat qonun ustuvorligiga erishish uchun insonning asosiy huquqlarini ta'minlashning maxsus mexanizmlariga ega bo'lishi kerak. Yuridik fanda nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan huquqiy tartibga solish



mexanizmga asoslanib, insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblangan shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmi konstitutsiyaviy va huquqiy vositalarning qanchalik ishlayotganligida ko'rinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davrida shaxsiy daxlsizlik kafolatlarini ta'minlash masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Rivojlangan davlatlar qatori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlangan. Ushbu huquq konstitutsiyaning 13-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr – qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Shunigdek, yana bir qancha normalar, xususan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 va 27-moddalarida shaxsiy daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy huquq sifatida mustahkamlanganligini va himoyada ekanligini ko'ramiz.

Jinoyat protsessida shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlashning nazariy va huquqiy asoslari davlatning inson huquqlariga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichdir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida bu borada mustahkam konstitutsiyaviy va qonunchilik bazasi yaratilgan. Inson qadr-qimmat, huquqiy davlat va aybsizlik prezumpsiyasi kabi nazariy tamoyillar milliy qonunchilik, xususan, JPK normalarida o'z aksini topgan.

Biroq, huquqiy normalarning samarali ishlashi va amaliyotda ularning izchil tatbiq etilishi doimiy nazoratni va takomillashtirishni talab etadi. Huquqni qo'llovchi organlar xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish, sud nazoratining mustaqilligi va samaradorligini kuchaytirish, shuningdek,



jamoatchilik nazoratini rivojlantirish orqali shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlash darajasi yanada yuksaladi. Bu o'z navbatida adolatli sudlov tizimini mustahkamlashga va mamlakatda inson huquqlarining oliy qadriyat sifatidagi mavqeini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2019.
2. Saidov. A.X. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shunigdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. – T.: 2012. – B. 85-89.
3. Stevens, Toby (2016), Data Protection: Objectives or Outcomes? 14 Sept. Available at ComputerWeekly.com.
4. Всеобщая декларация прав человека, принята Генеральной Ассамблеей ООН 10 декабря 1948 г. // Сборник документов. М., 1998.